

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI  
“IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT” YO‘NALISHI**

**IV-bosqich talabasi**

**Tursunboeva Marg‘uba Samijonovnaning  
Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va uning yoshlar  
ruhiyatiga ta’siri**

**MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**U.U. Mansurov**

**NAMANGAN-2014**

## MUNDARIJA:

Kirish.....

I-BOB. Dunyo mafkuraviy manzarasining yoshlar ruhiyatiga ta'sirini tadqiq etish – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida

1.1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi bilan bog'liq tushunchalar talqini.....

1.2. Mafkuraviy globallashuv dunyo manzarasining asosiy omili sifatida.....

II-BOB. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida yoshlar tarbiyasining amaliy asoslari

2.1. Yoshlar ruhiyatiga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlar tavsifi va tasnifi.....

2.2. Ma'naviy tahdidlarga qarshi tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbliligi.** XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tajovuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Aniqrog‘i, XXI asr jahon siyosatchilari, iqtisodchilari, siyosatchilari, olimu-mutaxassislari tomonidan turli xil nomlar bilan atalmoqdalar. Ayrimlari XXI asrni “axborot asri” desa, kimdir uni “aql tafakkur”, yana boshqasi “yuksak texnologiya”lar, yana kimdir esa “integratsiya asri” deb atashmoqda. Tabiiyki ushbu fikrlarning barchasida asos bor. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov esa XXI asrni “globallashuv davri” deb atashlari bejiz emas.

Globalashuv (globalizatsiya) – lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurrallashuv” deb tarjima qilish mumkin. Er sharining, er kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi<sup>1</sup>.

2011 yil 29 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to‘g‘ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2011 yillarga mo‘ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish orqali global inqirozning oqibatlari va taxdidlariga nafaqat bardosh berishga, balki iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga, xalq farovonligini oshirishga muvaffaq bo‘linganligini ta’kidlaydi<sup>2</sup>.

Globalashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlar, davlatlarning moddiy madaniyati, iqtisodiyotlarining yaqinlashuvini tezlashtiradi, ularning rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Globalashuvning salbiy tomoni esa mayda etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo‘ylab kuchayib borayotgan globallashuv

<sup>1</sup> Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Toshkent, 2006. –B. 70.

<sup>2</sup> Xalq so‘zi. 2011 yil, 27 yanvar.

jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, insoniy-zaboniy hayotdan chetga chiqib qolmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining hozirgi davrida yoshlar tarbiyasiga e‘tibor tobora kuchayib bormoqda. Buning qator sabablari boriki, ularni ma‘naviy-ma‘naviy axloqiy mafkuraviy ishda e‘tiborga olmaslik mumkin emas.

**Birinchi***dan*, mamlakatimiz tom ma‘noda yoshlar mamlakati hisoblanadi. YOshlarning ijtimoiy madaniy extiyojini qondirish, yuksak ma‘naviy mafkuraviy bilimni shakllantirish hozirda juda zarur bo‘lib qolmoqda.

**Ikkinchi***dan*, dunyo tobora globalashib bormoqda. Dunyoning turli burchaklaridan “ommaviy madaniyat” deb nom olgan xodisa bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzulish va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an‘ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma‘naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan hatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”<sup>3</sup>.

Ayrim yoshlarimizda bunday “madaniyat”gaberiluvchanlik kayfiyatlari yo‘q emas. Qolaversa, dunyo globallashuvi – tabiiy jarayon. Uning yaxshi, ibratli tomonlari ham yo‘q emas. Kuchli axborotlashuv, ma‘lumotlar oqimi zo‘raygan hozirgi davrda faqat hissiyotga emas, balki, aqlga suyangan holda ish tutishgina yoshlarimizning adashmasdan o‘z yo‘lini topishga imkon berishi mumkin.

**Uchinchi***dan*, mamlakatimiz mustaqillik yillarida juda katta, zalvorli yutuqlarga erishganiga qaramasdan, ayrim fuqarolarda, asosan aholining katta yoshdagi ma‘lum qismida o‘tmishni qo‘msash holatlari ham yo‘q emas. Bu narsa yoshlarimiz ma‘naviy qiyofasini shakllantirishga xalaqit bermoqda. Demak, yoshlar tarbiyasi ayni paytda o‘zini “rivojlantirish”ga extiyoj sezmagani tarbiyasi bilan ham hamoxangdir.

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. –B. 117.

To'rtinchidan, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish ularning tafakkur tarzini boyitish bilan bevosita bog'liqdir. Har bir yosh yigit-qiz o'z shaxsiy rejasini jamiyat ijtimoiy mo'ljal bilan uyg'unlashtirishga ijtimoiy faollik darajasini oshirmas ekan, bunday holda tafakkur o'sishi xaqida gapirishni foydasi yo'q.

Qolaversa, yoshlar xuquqiy savodxonligini oshirmasdan turib ularning ma'naviy dunyosini boyitish ham mumkin emas.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va uning yoshlar ruhiyatiga ta'siri ya'ni globallashuv davri muammolariga olim va mutaxassislarning yuzlab ishlari bag'ishlangan bo'lib, mazkur masalalar bugungi kunda o'ta dolzarblik kasb etadi. Biroq, ular hozirga qadar alohida o'rganilmagan. Qolaversa, bugungi dunyo mafkuraviy manzarasining yoshlar ruhiyatiga ta'sirini tadqiq etish – katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida chuqur islohotlar o'tkazilmoqda. Ular o'zini ijobiy natijadalarini bermoqda. Bunga hech kim shubha qilmaydi.

SHu bilan birga, ayrim yoshlarimiz ongu shuurida, tafakkurida yangilikni anglab olishga xalaqit qilayotgan omillar ham borki, bularni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga, yoshlar ruhiyati va tarbiyasiga qarshi qaratilgan turli ma'naviy tahdidlar va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, so'nggi yillarda yoshlar axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga keldi, ularning oldini olishning samarali yo'llarini aniqlash dolzarb ustuvor vazifaga aylandi.

Inson ongi va qalbi uchun kurash tarixan turli shakllarda insoniyat xayotidan o'rin egallab kelgan. Hozirgi davr mafkuraviy tahdidlarining kuchayib borayotgani, turli oqimlar va kuchlar tomonidan g'arazli maqsadlar yo'lida amalga oshirilayotgan, jamiyat ma'naviy barqarorligiga salbiy ta'sir etadigan mafkuraviy xurujlarning yuzaga kelayotgani bilan xarakterlanadi. Bunday jarayonlar mustaqil taraqqiyot yo'lga chiqqan yangi davlatlarning hayotida ham o'ziga xos tarzda aks

etmoqda. SHu bois “... hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh bo‘lishga da‘vat etishi tabiiydir”<sup>4</sup>.

SHuningdek, tadqiqotning dolzarbliligi mafkuraviy taxdidlarning oldini olish jamiyat barqarorligini ta‘minlashning muhim omili ekanini ijtimoiy-pedagogik tadqiq etish va g‘oyaviy tarbiya jarayonida yoshlarning tabiiy-biologik, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish pirovard maqsadga erishishning zaruriy sharti ekanligini ko‘rsatishdir.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Respublikamiz olimlari tomonidan so‘nggi yillarda g‘oyaviy ta‘sirlarning mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda milliy g‘oya va mafkuraning turli qirralarini yoritish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, g‘oyaviy tarbiya jarayonida ularning extiyoj va manfaatlarini inobatga olishning ahamiyati kabi masalalarga ham e‘tibor qaratilgan.

Umuman, yuqoridagi mavzu bo‘yicha ma‘naviy, mafkuraviy tahdidlarning mohiyati, ularni oldini olishning nazariy-metodologik asoslari tizimi ravishda, eng avvalo O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqotning maqsadi – mamlakatimizda mafkuraviy jarayonlar, g‘oyaviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasida milliy axloqiy qadriyatlarning o‘rni tahlil qilinib, hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning oldini olish yo‘llarini ijtimoiy-pedagogik tahlil qilishdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – Biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustaqil poydevordir. –Toshkent, 2009. –B. 29.

- Mafkuraviy globallashuv jarayoni va bu masala bilan bog‘liq tushunchalarni yoritib berish orqali, dunyo mafkuraviy manzarasining yoshlar ruhiyatiga ta‘sirini tahlil qilish;

- Mafkuraviy tahdidlarning mazmun mohiyatini va namoyon bo‘lish shakllarini ijtimoiy-pedagogik tahlil qilish;

- Milliy g‘oyani amalga oshirish hozirgi davrda g‘oyaviy xurujlarning oldini olishning muhim sharti ekanligini asoslash;

- YOshlarni buzg‘unchi g‘oya ob‘ektiga aylanish sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammolarining echimlarini ko‘rsatish;

- Mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda oila, mahalla va ta‘lim-tarbiya tizimining o‘rnini tahlil qilish;

- Dunyo mafkuraviy manzarasining yoshlar ruhiyatiga ta‘sirini tadqiq qilish orqali, g‘oyaviy tarbiya samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish masalalarini yoritish.

- Mafkuraviy taxdidlarning oldini olishga doir nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asoslari.** Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi va yoshlar tarbiyasi, milliy g‘oyaning mazmun mohiyati, zamonaviy tahdidlar, ularning namoyon bo‘lish shakllari va oldini olish yo‘llari hamda ma‘naviy taxdidlarga qarshi tarbiya mazmuni, shakli va vositalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon etilgan fikrlar bitiruv malakaviy ishining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishdir.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.** Prezidentimiz I.A.Karimov mafkuraviy tahdidlarni, informatsion xurujlarni bartaraf etishdagi asosiy omillarga to‘xtalar ekan, har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishga, ogoh va sergak bo‘lishga da‘vat etadi: “... o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘z kuchiga, o‘zi tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi”. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho‘chimaydi, balki zamonaviy bilim va

falsafiy qarashlarga, xayot xaqiqatiga suyangan holda har qanday g‘arazli niyat, taxdid va xurujlarni fosh qilishga qodir bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ilmiy tadqiqotning yangiligi, turli mafkuraviy ta’sirlar, informatsion xurujlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun yoshlarimizni iymon-e’tiqodini, irodasini mustahkamlash, ularni mustaqil fikrlovchi barkamol avlod insonlar etib tarbiyalash, ularda ota-onalarning muqaddas qadriyatlarini asrab avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish zarurligi borasida aniq tavsiyalar qayd etilganligidir.

Mafkuraviy globallashuv informatsion xurujlar saviyasi past, audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ‘ib qiladigan “san’at asarlari”ning tez tarqalishiga, yoshlarimizning ongini zararlashga urinmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi, g‘oyaviy, mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun har bir millat, davlat o‘zining g‘oyaviy mafkuraviy daxlsizligini ta’minlaydigan, chora-tadbirlar zarurligini inobatga olib, kuchli xalq irodasini o‘zida aks ettirgan, yoshlarni turli mafkuraviy taxdid va informatsion xurujlardan himoya qila oladigan tadbirlar rejalari ishlab chiqilishi va ularni hayotga tatbiq qilish borasida tavsiyalar berilgan, ilmiy xulosalar bayon qilingan.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** “Mafkuraviy ta’sir va tahdidlar” xaqida gap ketar ekan, “informatsion xurujlar” va globallashuv jarayonining tezlashuvi masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan bir paytda, ularni aniqlash, baholash, shakllari, xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilgan.

Ushbu tushunchalar bitiruv malakaviy ishida tahlil qilib berilgan. Bular “mafkuraviy profilaktika”, “mafkuraviy immunitet” ana shu tushunchalar mohiyati ochib berilishi bilan hozirgi dunyoda kechayotgan jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish borasida alohida taklif berilgan.

Yoshlar dunyoqarashida g‘oyaviy bo‘shliqlar paydo bo‘lishining oldini olish ularni turli mafkuraviy tahdid va tazyiqlardan informatsion xurujlardan asrash maqsadini amalga oshirishda qator taklif va mulohazalar berilganligi tadqiqotning bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb masalaga qaratilganligini bildiradi.

O‘rganilayotgan mavzuni hayotiyli va nazariy ahamiyati shundan iboratki, biz mafkuraviy xurujlar, ma’naviy kurash, informatsion xurujlar, ma’naviy tahdidlar davrida yashayapmiz va ishlayapmiz. SHu bois, bilim g‘oya, barcha o‘qilayotgan mavzularni hayot bilan bog‘lash, doimiy isbotlar bilan tushuntirilishi lozim.

SHu sababli mafkuraviy tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqib, mafkuralar kurashiga oid “mafkuraviy kurash”, “mafkuraviy qarshi turish”, “informatsion xuruj”, “mafkuraviy diversiya”, “mafkuraviy qo‘poruvchilik” kabi tushunchalar ma’nosini yoshlar bilishlari kerak.

Xuddi shuningdek, O‘zbekiston xalqi mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi “mafkuraviy qo‘poruvchilik”, “mafkuraviy e’tiqod”, “mafkuraviy safarbarlik”, “mafkuraviy munosabat” va hakoza tushunchalar tadqiqot ishida muhokama qilingan.

Bugun masofalar qisqarayotgan, munosabatlar yaqinlashayotgan madaniyatlar mushtaraklashayotgan zamon tili bilan aytganda hamma narsa “globallashayotgan” bir davrda yashab turibmiz. Iqtisod va siyosatning globallashuvi madaniyatlar globallashuviga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo xalqlari o‘rtasidagi keng integratsion aloqalarga, hamkorlikka qurilayotgan hozirgi davrda turmush tarzi global munosabatlar ta’siridan chekkada qololmaydi. Global jarayonlar mohiyatiga ko‘ra, xalqlarni yaqinlashtirish, insonning hayot tarziga umuminsoniy manfaatlar nuqtai nazaridan ta’sir etishning omiliga aylanib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, globallashuv va integratsiya jarayonida axborot sohasidagi globallashuv insonlar hayotini tubdan o‘zgartirib yuborayotganligi, globallashuv tariqasida turli kirib kelayotgan

informatsion xurujlar, kinofilmlar, videokliplar, missionerlik harakatlarini yoshlar ma'naviyatiga ta'siri kuchayib borayotganligi aniq misollar bilan bayon qilib berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** Tadqiqot ishi Kirish, 2 ta bob, 4 ta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

## **I-BOB. Dunyo mafkuraviy manzarasining yoshlar ruhiyatiga ta'sirini tadqiq etish – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida**

### **1.1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi bilan bog'liq tushunchalar talqini**

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. SHu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar ham bormoqda.

Kishilik jamiyati tarixi insonda olijanob fazilatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ham ayni paytda g'ayriinsoniylikning xilma-xil ko'rinishlari ildiz otib o'zining mudhish qiyofasini namoyon qilishga ham ko'p guvoh bo'lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamrohlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Er yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga katta xavf tug'dirmoqda.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari barqarorlik va tahdid solmoqda. Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida bu masala alohida yoritilgan<sup>5</sup>.

Buyuk davlatchilik shovinizmi taraqqiyotga nisbatan xavf xatarlardan biridir.

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B. 55.

“... SHovinizm ba’zi ko’p sonli millatlarning nafaqat ko’p millatli imperiya doirasida, balki uni o’rab turgan jug’rofiy-siyosiy makonda ham o’zining mutlaq hukmronligini o’rnatish uchun kurashida namoyon bo’ladi ”<sup>6</sup>.

Buyuk davlatchilik shovinizmi g’ayriinsoniy harakterga ega. U o’z mohiyatiga ko’ra milliy tengsizlikni oqlash, targ’ib-tashviq qilish hamda himoya qilishning o’ziga xos shaklidir.

Tarixdan bilamiz buyuk davlatlar maqomiga ega bo’lgan ayrim mamlakatlar ko’pgina mintaqalarning o’zlarining “hayotiy manfaatlari” hududi sifatida bosib olib, uzoq vaqt mustamlakachilik siyosati yurgizgani ma’lum. Ayrim bosib olingan hududlarning tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish, bu mamlakatlarning moddiy va ma’naviy boyliklarini o’zlashtirish, ularga ulkan va qudratli davlatga aylanishga imkoniyat yaratadi.

Iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan, ijtimoiy totuvlikka zil ketgan, ichki ziddiyatlar kuchaygan, Vatan, millat taqdiridan o’zining tor manfaatlarini ustun qo’yadigan, o’zaro kelisha olmaydigan, hokimiyatga davogar siyosiy guruhlarning mavjud muammolarni tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi va ma’naviy-ruhiy parokandalik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg’ulari hukmron bo’lgan mamlakatlar buyuk davlatchilik shovinizmi nishoniga aylanishini zamon ham ko’rsatib turibdi.

Afsuski bizning O’zbekiston ham buyuk davlatchilik shovinizmining falokatli ta’siridan chetda qolmadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansovetizm bilan o’ziga xos tarzda qo’shilib kirmoqda.

Pansovetizm tushunchasi uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik, o’xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog’liqlikni mutloqlashtirishga asoslangan.

---

<sup>6</sup>Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida. –Toshkent: O’zbekiston, 1997. –B. 52.

Pansovetizm, **birinchidan**, behisob xomoshyo resurslari, ishchi kuchi, transpor kommunikatsiyalaridan foydalanishdan, geostrategik mavqedan mahrum bo‘lish;

**Ikkinchidan**, sobiq koloniyalarning o‘z metropoliyasi ta’siri tazyiqidan xolos bo‘lishga intilish, mustaqil ichki va tashqi siyosat yurita borishi;

**Uchinchidan**, xalqaro maydonda teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik ustivor bo‘lib borayotganini tushunmaslik, to‘g‘rirog‘i tushunishni istamaslik;

**To‘rtinchidan**, boshqa kuchlar markazi tomonidan go‘yoki uning hayotiy manfaatlari tan olinmayotgani, u amal qilayotgan hududlar toraytirilayotganini ro‘kach qilish va nihoyat **beshinchidan**, maqtanchoqlik, insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga ortiqcha baho berish, uni betakror va noyob deb hisoblash hozirgi kunda buni davlatchilik shovinizmning jonlanishi uchun “asos” bo‘lib xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma’naviyatida islom dininnig mustahkam o‘rin egallaganidan foydalanib, ularga islomiy, “saboq” berish, islomni qayta tiklash bayrog‘i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo‘poruvchilik harakatlari kuchaydi.

“Fundamentalizm”, “Ekstremizm”, “Terrorizm” kabi tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qonun qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo‘lgan g‘oyalar hamda ular asosidagi harakatlarni ifodalaydi. Ekstremizm qanday nomlangan yoki qanday ko‘rinishga ega bo‘lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarni shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

Diniy ekstremizm o‘zining ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

- ularning aqidalariga ko‘ra, go‘yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari, islomiy tuslarini yo‘qotganlar va joxiliya (islomdan avval) asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini tanqid qilishga “asos” bo‘lib xizmat qiladi;

- ular go‘yo faqat “haqiqiy” musulmonlar, ya’ni ularning o‘zlari hokimiyatga kelgach, barpo bo‘lajak, “islomiy tartibot”, o‘rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Aslida “fundamentalizm” va “ekstremizm” g‘oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko‘zlangan maqsad, dini qadriyatlarini qaytadan tiklash emas, balki ana shu g‘oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo‘lga kiritishdir. Bunda tuzatib bo‘lmas fojialarga olib kelishi mumkin bo‘lgan, tarixda qolib ketgan xalifalikni tiklash g‘oyasiga zo‘r bermoqda. Bu yo‘lda islom fundamentalizmi vakillari, katta diniy e‘tiqod darajasida, inson qalbi ma’naviy boyligining ajralmas qismi bo‘lgan milliy o‘ziga xoslikni qurbon qilish g‘oyasidan ham qaytmaydilar.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning mintaqamiz, xususan mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tug‘dirayotganligini fahmlash qiyin emas. (Bunga yaqqol misol 1999 yil 16-fevral voqealaridir)<sup>7</sup>.

Agar O‘zbekistonda dushmanlarimiz mo‘ljallagan maqsadlar amalga oshsa, bu nafaqat bizda, balki butun mintaqada davlatlarida ham juda katta siyosiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lishi, mintaqaviy integratsiya jarayonlariga o‘zining ulkan salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin.

O‘zlarining islom dinining "Himoyachilari" deb ko‘rsatishga urinayotgan terroristlarning asl niyati chinakam islomiy qadriyatlarni tiklash emas, balki hokimiyatni qo‘lga kiritish. Markaziy Osiyodagi mamlakatlarni o‘zlari tanlagan yo‘ldan qaytarish va butun mintaqada o‘z hukmronligini o‘rnatish edi.

Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek "... Markaziy Osiyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999. –B. 48.

daxl qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash zarur"<sup>8</sup>.

Bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh masalasidir. SHuning uchun ham er yuzini turli mintaqa xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni singish maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda.

Ana shunday sharoitda xalqning barcha qatlamlariga berilayotgan bilimlar ob'ektiv voqelikni to'liq va to'g'ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga "Vatan va xalq manfaatlariga, qadriyatlarni saqlashga xizmat qilishi lozim"

Bilimlar qanchalik ob'ektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida vujudga kelgan qadriyatlar ham shunchalik ustivor bo'ladi. Ularni egallagan odamlar mafkuraviy tajovuzlarga zarba bera oladilar.

G'oyaviy mafkuraviy bo'shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o'tmishiga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o'rnini bosadigan ilg'or g'oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli mafkuralar o'z ta'sirini o'tkazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekiston hududida ham namoyon bo'ldi.

Uning xususiyatlari quyidagicha:

Birinchiidan hukmron, yakkahokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom tanazzulga qo'l tutdi va uning o'rnini bo'shab qoldi.

Ikkinchiidan, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo'lsa-da, uning mafkurasi hali to'la-to'kis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan, barchaning e'tiqodiga, mustaqil dunyoqarashiga aylanmagan edi.

Uchinchiidan, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar huruji boshlanadi. O'tish davrida yangicha qarashlar

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2000. –B. 36.

mustahkam e'tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta'sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay olmaydi.

O'zbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo yot g'oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohlanadi.

To'rtinchidan, mustaqil mamlakatimiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afg'oniston va boshqa yaqin hududlardagi beqaror vaziyatdan foydalanib, ularning hududiga in qurib olgan ba'zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi to'dalar o'z jinoyatkorona maqsadlarini amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqisini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi<sup>9</sup>.

Bu jinoiy guruhlar o'zlarining yovuz maqsadlarini turli islomiy mafkuraviy g'oyalar bilan niqoblashga harakat qildilar. Ayniqsa, 80-yillarning ikkinchi yarmi, 90-yillarning boshlariga kelib din niqobidagi zararli, xalqimizning iymone'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan qarashlarni "vahhobiylik", "hizbut tahrir", "akromiylik", "adolat uyushmasi", "islom lashkarlari", "tavba" kabi harakatlarning ta'sirini yoyishga, yoshlarni yo'ldan ozdirishga intildilar.

Vahhobiylik islom g'oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go'yoki islomni payg'ambar davridagi "asl holatiga qaytarish", ya'ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari suradi.

Vahhobiylik mustaqillikning ilk yillaridagi g'oyaviy bo'shliqdan ustalik bilan foydalanishga intildi. SHuning uchun ba'zi kishilarni arab mamlakatlarida sayohatda, xizmat safarida, o'qishda bo'lgan vaqtlarida o'z ta'siriga tushirishga harakat qildi.

SHundan so'ng, dastlab joylardagi masjidlar imom-xatibligi uchun, keyinroq esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurashdi, islom siyosiy partiyasini tuzishga harakat qildi. Asta-sekin O'zbekistonni islom respublikasi deb e'lon qilish, mintaqamizda xalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Ular o'tgan yillarda qonli jinoyatlar, tartibsizliklar sodir etdilar.

---

<sup>9</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B. 54.

Ular o‘z niyatlarini amalga oshirishda "do‘stlik", "dindoshlik", "millatdoshlik" tushunchalarini ham ishga soladilar. Kerak bo‘lganda moddiy yordam ham ko‘rsatadilar. Masjidlar qurib berib, islomiy adabiyotlar bilan ta‘minlab, o‘zlarini haqiqiy dindor, haqiqiy musulmon qilib ko‘rsatishga intiladilar. Ammo razil niyatlarini baribir oshkor etadilar, turli qo‘poruvchilik, tezkor ishlariga sabab bo‘ladilar. Vahhobiylik, xizbut tahrir kabi zararli oqimlar mustaqillikning dastlabki yillarida sodir bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan ustalik bilan foydalanishga intilgan bo‘lsa-da, lekin maqsadlariga baribir erisha olmadilar.

Ammo o‘sha dastlabki paytlarda e‘tiqodi bo‘sh, sodda va ishonuvchan, dunyoqarashi shakllanmagan, etarli bilimga ega bo‘lmagan odamlarni, ayniqsa bilib-bilmay noto‘g‘ri yo‘llarga kirib qolganligi ham faktdir. YOshlarning "Kamolot" jamg‘armasi faoliyati istiqlol talablariga javob bera olmaganligi oqibatida ham ko‘plab yoshlar istiqlol g‘oyalariga asoslangan tarbiyaviy jarayonlardan chetda qolib ketishga sabab bo‘ldi.

Davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada etarli tajribasi yo‘qligi, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolganligi, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro‘y berayotgan murakkab jarayonlar o‘z vaqtida ilmiy echimini topmagani, odamlarga mafkuraviy jihatidan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslar, diniy ulamolarning etarli emasligi ham bunga sabab bo‘ldi.

Xullas, g‘oyaviy bo‘shliq umrini o‘tab bo‘lgan g‘oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilish natijasida vujudga keladi.

## **1.2. Mafkuraviy globallashuv dunyo manzarasining asosiy omili sifatida**

XIX-XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Evropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada "jahon fani", "umuminsoniy qadriyatlar" deganda birinchi navbatda Evropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. YAngi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko‘p jihatdan madaniy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Bu davrda Evropa xalqlari

(inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o‘zaro madaniy axborot almashinuv doirasidan chiqib, o‘zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o‘zlashtira boshladilar<sup>10</sup>. SHarqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan sohalari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Evropaliklarning Osiyo va Afrika mamlakatlari va xalqlari hayotini o‘rganishi, bir tomondan, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, turli mintaqa xalqlarining birbirlarini tushunish, o‘zaro erkin muloqot qilish imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, muayyan g‘arazli kuchlar uchun o‘zlariga qaraganda iqtisodiy va harbiy jihatdan zaifroq bo‘lgan yurtlarni bosib olish, qaramlik asoratiga solishga bo‘lgan intilishlari yo‘lida xizmat qildi.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilishiga, Prezidentning yangi kitobida topib aytilganidek, “sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi”gaolib keldi.

Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon “globallashuv fenomeni” deb nomlanmoqda. “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobida bu hodisa oddiy qilib “hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi” deb tushuntiriladi<sup>11</sup>.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlarni uzil-kesil “yaxshi” yoki “yomon” deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Kitobda yozilganidek, “har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin.”

Prezident kitobida globallashuv va integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab o‘tiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan bo‘lsa, birinchi navbatdaturli sohalarda(jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida)“davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining

<sup>10</sup> Abdullaev A. Ma’naviyat va iqtisodiy tafakkur. –Toshkent: Ma’naviyat, 1999. –B. 89.

<sup>11</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat. 2008. –B. 18.

kuchayishi”ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

SHu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba’zilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangilik ularning o‘z g‘arazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzg‘unchi kuchlar uchun “ayni muddao” bo‘ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o‘z qabih niyatlari yo‘lida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yo‘q. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh “erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish”niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

Prezident I.A.Karimovning yangi kitobida insonlarning Borliq haqiqatiga munosabatidagi ikki xil yondoshuv, “bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash” haqida gap boradi:

“**Birinchisi** – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

**Ikkinchisi** – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondoshuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi...”

SHu o'rinda savol tug'iladi: befarqlik, loqaydlik bilan yovuzlik orasidagi munosabat qanday? Tan olish kerakki, dunyoda son jihatidan olinsa, mutlaq yovuz odamlar juda kamchilikni tashkil qiladi. Ular aslida odam ham emas, sunami, to'fon yoki zilzila kabi "xudoning bir balosi". SHunday ekan, qanday qilib juda ozchilik bo'lgan bu toifa ba'zan millionlab insonlar ustidan o'z hukmini yurgiza boshlaydi? Ayni yuqorida aytilgan hayotning ma'no-mazmuni haqida bosh qotirishni oshiqcha ish deb biladigan, Alloh va bashariyat oldidagi o'z burchini eslashni ham istamaydigan, faqat nafs qayg'usi va o'tkinchi hoyu havasga berilib kun kechiradigan odamlarning befarq va loqaydligi tufayli bunday yovuz kuchlar o'z makru hiylalarini bemalol amalga oshirishga muvaffaq bo'ladilar. CHunki bunday kimsalar ko'pincha o'zlari sezmaganda yovuzlik kuchlariga xizmat qiluvchi dahshatli qurolga aylanib qoladilar. SHu sababli Prezidentning yangi kitobida befarqlik va loqaydlik asl insoniylikka zid turuvchi qusur sifatida qattiq qoralanadi.

Aytilganlarga eng yorqin misol sifatida bugungi kunda butun dunyodagi fikrlovchi insonlarni borgan sari qattiqroq tashvishga solayotgan "ommaviy madaniyat" hodisasining kelib chiqishiga e'tibor qarataylik. Bu hodisa bugun butun dunyoga ko'proq Evropa va SHimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridan tarqalayotganini hisobga olib, ushbu mintaqalardagi hozirgi ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanish tarixiga qisqa (eng umumiy bir tarzda) to'xtab o'tish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, shu kungacha jahon ilmida "ma'naviyat" hodisasi yaxlit tushuncha sifatida izchil ilmiy tahlilga tortilmadi. Bu sohaga oid mavjud izlanishlar boshqacha tushunchalar va tizimlar doirasida kechdi. Xususan, Evropada inson ma'naviyatiga oid bahslar falsafa va uning tarkibiy qismi hisoblangan axloqshunoslik ilmi doirasida rivojlandi. Inson axloqi aslida zohiriy, aniqrog'i, ikkilamchi hodisa bo'lib, shaxs ma'naviyatining insonlar aro

munosabatlarda namoyon bo'lishidir. Uning botinida ma'naviy omillar yotgani tufayli faylasuflar asosan axloqning botiniy omillariga e'tibor qaratganlar. Agar bu sohadagi Evropa an'anasini umumiy bir tarzda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, axloqshunoslik ilmi ko'proq insonning iroda erkinligi, aql va bilim, baxt va lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik kabi masalalarga e'tibor qaratganligini ko'ramiz. Aksariyat holatlarda mas'uliyat va burch masalalari ham inobatga olinadi. Axloqning imonga bog'liq jihatlari xristian axloqida alohida ta'kid etilsada, YAngi davrda bu masala ko'pincha aktuallashmaydi. Umuman, insonning dunyoviy maqsadlariga alohida e'tibor qaratilishi Evropa axloq ilmining ustivor jihati deyish mumkin.

Insonning iroda erkinligiga e'tibor masalasida Evropa faylasuflari SHarqqa nisbatan ancha ilgari ketganliklarini e'tirof etish lozim. Islom mintaqa madaniyatining ilk shakllanish davrida ushbu masala atrofida ancha qizg'in bahslar bo'lib o'tgani tarixdan ma'lum. Jabariylar va qadariylar orasidagi munozaralar, mo'tazila kalomida bu muammoga ayricha e'tibor axiyri borib Imom Abu Mansur Moturidiy ta'limotida uzil-kesil hal qilingach, keyinchalik bu muammoga ko'p ham e'tibor qaratilmadi. Vaholanki, imom Moturidiy va izdoshlari o'z davridagi turli bid'atlar bilan mubohasa jarayonida ko'proq Alloh qudrati va irodasining mutlaqligini ta'kidlashga urg'u berish bilan band bo'lishib, insonning iroda erkinligi masalasida ixtiyor, kasb va fe'l tushunchalarini sharhlash bilan chegaralangan edilar<sup>12</sup>. YAngi davr Evropa axloq ilmida insonning iroda erkinligi masalasi deyarli doimo faylasuflar diqqat markazida bo'ldi. Ayniqsa, nemis mumtoz falsafasining asoschisi Immanuil Kantning g'ayb olami ("Ding an sich"), "nazariy aql" va "amaliy aql", insoniy bilim chegaralari haqidagi qarashlari, shu asosda iroda erkinligi va mas'uliyat (burch) nisbatiga alohida e'tibori diqqatga sazovordir. Kantning fikriga ko'ra, inson shaxs sifatida erkin iroda egasi bo'lib, o'z

<sup>12</sup> Otamurodov S. Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. –B. 78.

hayotiy maqsadlarini o‘zi erkin belgilaydi. SHu bilan birga bani basharning har bir a‘zosi o‘zgalar erkini cheklovchi harqanday xatti-harakatdan o‘zini tiyishi kerak. Bunday oliy mas’uliyatni faylasuf “qat’iy qoida” (“kategoricheskiy imperativ”) deb nomlaydi.

Immanuil Kantning falsafasi inson ruhining abadiyligi va yagona oliy ilohiy qudratning mavjudligini bevosita axloq bilan bog‘lab izohlagan bo‘lsa, keyingi asrlar Evropa falsafasi rivojida yana umumbashariy meyorlardan uzoqlashuv kuchayib bordi. YAngi Davr Evropa ilmida axloqni o‘rganuvchi aksariyat yo‘nalishlar moddiyunchilik asosiga qurilib, axloqiy meyorlarning shakllanishinifaqat insonning moddiy (dunyoviy) ehtiyojlaridan keltirib chiqarishga urindilar. Ularga ko‘ra axloqning negizida baxtli bo‘lishga intilish, lazzatlanishga intilish, manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi. Milliy ma’naviyatimiz an’analarida shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari – imon, ilm, mas’uliyat, mehrning o‘zaro uyg‘unligi masalasi ustivor yo‘nalish ekanligi ma’lum. Muayyan tarixiy sabablarga ko‘ra Evropa axloq ilmida ayni shu o‘zaro mutanosiblikka etarli e’tibor qaratilmadi. Natijada, bugungi kunga kelib, ushbu mintaqada ma’naviy-axloqiy sohada juda og‘ir muammolar kelib chiqmoqda<sup>13</sup>.

Bizning nazarimizda, axloqning ikki jihati bor, birinchisi – zohiriy (tashqi) tomoni bo‘lib, insonlar aro munosabatlarda o‘rtacha mo‘‘tadil meyorini saqlab turishga xizmat qiladi va u sharoitga moslashib o‘zgarib turishi mumkin. Ikkinchisi – botiniy (ichki), ya’ni shaxs ma’naviyati bilan bog‘langan tomoni bo‘lib, bu jihat endi tashqi shart-sharoitga emas, balki shaxsning imon-e’tiqodiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunday inson sharoit taqozosi bilan imon-e’tiqodiga zid xatti-harakat qilishga majbur bo‘lsa, unda vijdon azobiga uchraydi. Demak, “vijdon azobi” hodisasi zohiriy axloq talablari bilan shaxs imoni orasida ziddiyat mavjud bo‘lgan

<sup>13</sup> SHodiev G‘. Ma’naviyat va yoshlar. –Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2008. –B. 15.

holatlarda paydo bo‘ladi. Materialistik (aniqrog‘i, dahriyona) dunyoqarashga asoslangan axloqiy ta‘limotlarda odatan zohiriy tomonga e‘tibor qaratiladi va imon hisobga olinmaydi. Axloqni ijtimoiy muhit bilan yoki insonning fiziologik (biologik) ehtiyojlari bog‘lab izohlashga urinish ana shunday qarashlar natijasida tug‘iladi. Vaholanki, na ijtimoiy muhitning, na fiziologik ehtiyojlarning axloqqa bevosita aloqasi yo‘q.

SHaxs axloqining zohiriy jihati – jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga bo‘ysunish, rioya qilish bilan ifodalanadi. Jamiyatning axloqiy meyorlari esa mohiyatan ma‘naviyatga emas, balki siyosat sohasiga taalluqli bo‘lib, jamiyatdagi umumiy osoyishtalik va barqaror vaziyatni ta‘minlashga qaratilgandir. Aslida ular meyoriy (yozilmagan) qonun-qoidalar shaklida bo‘lib, siyosatdagi axloq qatlamining yuza qismini tashkil etadi. Bizning mintaqada mukammal ishlangan shaxs axloqining botiniy asoslari, o‘z navbatida, uning ma‘naviyati va tabiati (xulqi) orasidagi munosabatlari zaminiga qurilgan bo‘lib, imon-e‘tiqod masalasi bu o‘rinda etakchi ahamiyatga egadir.

Jahon axloq ilmining falsafiy ildizlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ham ikki xil yondoshuvni kuzatish mumkin. Biri – inson faqat moddiylikdan iborat, uning hayoti (borlig‘i) faqat tug‘ilgandan jisman o‘lgungacha davom etadi, o‘lgach, jasad tuproqqa qorishib ketadi, “ruh” degani ruhiyat (psixika) bo‘lib, insonning moddiy vujudi tirikligi paytidagina asab tolalarining yashash tarzi sifatida mavjud bo‘lib, inson jismi halok bo‘lgach, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketadi, degan materialistik e‘tiqod<sup>14</sup>. Bu e‘tiqodga ko‘ra, inson hayvondan faqat moddiy a‘zo – bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining funksiyasi bo‘lmish aqlning rivojlanish darajasiga ko‘ra farqlanadi, ya‘ni inson va boshqa biologik mavjudotlar orasidagi farq aslida miqdoriydir, sifatiy emas. Tabiiyki, miya o‘lgach, uning funksiyasi ham yo‘q bo‘ladi. Bundan shunday xulosa chiqadi:

---

<sup>14</sup> Paxrutdinov SH. Tahdid-halokatli kuch. –Toshkent: Akademiya, 2001. –B. 56.

demak inson o‘z xatti-harakati uchun bu dunyoda, tiriklik davrida, jamiyat, ya’ni o‘zga insonlar oldida javob beradi, xalos. Bunda u boshqalar ko‘zi tushgan amali uchungina javob beradi, uning ko‘ngli, niyatlari boshqalar ko‘zidan yashirin, nimani o‘ylasa, o‘zi biladi, o‘zgaga daxli yo‘q, xatto boshqalar nigohidan pinhona qilgan ayb ishlari ham agar birov bilmasa, unga zarar keltirmaydi (mabodo birov bilib qolsa, o‘sha guvohni “sotib olish” yoki “gumdon qilish” imkoni ham yo‘q emas), siyosatda esa kim g‘olib chiqsa, o‘sha haq degan yozilmagan “qonun” mavjud. Qisqasi, ruslardagi “ne poyman – ne vor” qoidasi asosida yashayverasan, har qancha jinoyatlar qilma, kimdir ularni fosh qilmasa (yoki muayyan sabablarga ko‘ra fosh qila olmasa), umring oxirigacha rohat-farog‘atda yashab o‘ta berasan. Qani bu erda “vijdon” degan tushunchaning o‘rni?

Bunday dunyoqarash sohiblarining axloqi faqat zohiriy bo‘lib, jamiyatdagi mavjud axloqiy meyorlarga rasman rioya qilish bilan cheklanadi. Evropa axloqshunosligidagi gedonizm, evdemonizm, utilitarizm, relyativizm axloqiy prinsiplari ayni shunday moddiyunchilik asosiga qurilgan bo‘lib, bunday qarashlarga ko‘ra axloqning negizida baxtli bo‘lishga intilish (albatta, bu dunyoda, chunki oxiratda inson o‘z erki bilan taqdirini o‘zgartira olmaydi), lazzatlanishga intilish (bu lazzat xoh shahvoniy bo‘lsin, xoh intellektual), manfaatdorlik, sharoitga moslashish kabi sof dunyoviy maqsadlar nazarda tutiladi.

Ikkinchi yondoshuv – inson moddiy mavjudot, ammo undagi ruh abadiy, bu dunyo hayoti inson uchun sinov maydoni bo‘lib, uning har bir qadami o‘lchovli, u har bir xatti-harakati, amali uchun Oliy qudrat oldida javob beradi, agar savobli ish qilsa, ham bu dunyoda, ham oxiratda mukofotini oladi, agar gunoh qilsa, yoki bu dunyoda, yoki oxiratda jazosini oladi, deb e’tiqod qilish. YA’ni Borliqning asosi moddiylikdangina iborat emas, balki bu olamni yaratgan va boshqarib turgan azaliy va abadiy Oliy qudrat mavjud, deb ishonish, shunga imon keltirish. Imon keltirish bilan ushbu Oliy qudrat oldida mas’uliyat tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Ana shu

asosda shakllangan axloq haqiqiy axloq bo‘ladi. “Axloq – ma’naviyatning o‘zagi” degan ta’rifda ayni shu jihat inobatga olinadi.

SHaxsning xulqi uning ma’naviyati ta’sirida takomillashib (ya’ni tabiiy xislatlari qusurdan fazilatga aylanib) borgan sari uning axloqi zamima axloqdan (insonni xudbinlik sari tortuvchi tarbiya ko‘rmagan xulqdan) hamida axloqqa (ma’naviy kamolot natijasida go‘zallashgan xulqqa) aylanib boraveradi. Nafs tarbiyasi – ma’naviy kamolot yo‘li bo‘lib, axloqi hamidaning shakllanish yo‘li hamdir. Ammo ma’naviyat faqat nafs tarbiyasidan iborat emas. Ma’naviyat imondan boshlanadi, ilm bilan mukammallashadi, tahliliy imon orqali inson nafs tarbiyasi (samovospitanie)ga o‘tadi va oxiri mehr ma’rifati orqali ma’naviy kamolotga erishadi. “Axloq – ma’naviyatning o‘zagi ” degan hikmatning mazmuni shundaki, insonning ma’naviy kamolot darajasi uning axloqida eng yorqin shaklda namoyon bo‘ladi. Agar inson faqat taqlidiy imon darajasida qolgan bo‘lsa, u Allohning borligi va birligini tan olgan bo‘ladi, buyurilgan farzlarni baqadri imkon bajarishga urinadi, ammo axloqi hamida sohibi bo‘lmaydi<sup>15</sup>.

YUqoridagi mulohazalar I.A.Karimov kitobida bir jumlada bayon etilgan: “G‘arb olamida esa odamlarning hayot tarzida jamoaviylikdan ko‘ra individualizm, shaxsiy manfaat tamoyillari ustunlik qilishini kuzatish mumkin. Bu ham muayyan, ob’ektiv ijtimoiy-tarixiy omillar tufayli shakllangan voqelik bo‘lib, uni ham inkor etib bo‘lmaydi”<sup>16</sup>.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o‘z insoniy burchi va mas’uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o‘tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi “dunyoni manfaat boshqaradi” (demak, bu dunyoda har kim o‘z foydasi uchun qo‘lidan kelgan harakatini qilsa, bo‘laveradi, degan) dahriyona (aniqrog‘i, xudbinona) tezis (“qoida”) asosida yashash. Bu ikki omil

<sup>15</sup> Jo‘raev N. Mafkuraviy immunitet. –Toshkent: Ma’naviyat, 2001. –B. 47.

<sup>16</sup> Karimov I.A. YUksak ma’naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 25.

azaldan bo‘lgan. Uchinchi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya’nidunyodaazaliy va abadiy qat’iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko‘pchilik o‘zini qanday tutayotgan bo‘lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o‘ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to‘rtinchisi - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta’rifiga muvofiq, befarqlik va o‘ysizlik botqog‘iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanib, o‘zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni “umuminsoniy axloqiy meyorlar” darajasiga ko‘tarishga urinishlaridir. Bunday holatlar Evropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo‘lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko‘lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ‘ibot imkoniyatlariga ega bo‘lmagan edi. Prezident kitobida bu haqda shunday deyiladi: “SHuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.”

Bundan bir necha yillar muqaddam xalqaro YUNESKO tashkilotining Toshkentda bo‘lib o‘tgan nufuzli yig‘ilishida muhtaram yurtboshimiz insoniyat duch keladigan global muammolarni tahlil qilar ekanlar “XXI asrda insoniyatni ma’naviyat va ma’rifat asrab qoladi” degan edilar. Darhaqiqat, olamning bemor a’zolariga faqat ma’naviyatgina malham bo‘la oladi. Negaki tashqi olamning odobli inson ichki dunyosining obodligidan boshlanadi. Bu bashariyat asrlar davomida bosib o‘tgan yo‘li bilan isbotlangan haqqoniy xulosa.

Jahonda kechayotgan globallashuv va modernizatsiyalash jarayoni nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini qamrab olgan, balki millat ma’naviyatiga, ertangi kun istiqboliga ham ta’sir kuchini ko‘rsatmoqda.

Dunyo xalqlarining ko‘p asrlik madaniyatiga, qadriyatlariga turli yot g‘oya va oqimlarning raxna solayotgani “ommaviy madaniyat” niqobi ostida g‘ayri

ma'naviy, g'ayri axloqiy tushunchalarning jamiyat hayotiga suqilib kirayotgani sir emas.

Bu jarayon dunyo jamiyatiga tobora integratsiyalashib borayotgan, komil ishonch bilan yuksak taraqqiyot yo'lini tanlagan mustaqil O'zbekistonimizni ham chetlab o'tmagani ayon.

Prezidentimizning “YUksak ma'naviyat-engilmas kuch” asarida ta'kidlanganidek<sup>17</sup>, “Ming afsuski, ..tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblarning nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. Bunday kuchlarning g'arazli munosabati, avvalo, boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarshi qaratilgani, ular xalqimizni ana shu bebaho boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalar bilan zo'r berib urnayotgani barchamizni tashvishlantirmasdan qolmaydi, albatta”<sup>18</sup>.

YUrtimizda ushbu illatlarga qarshi kurash, yoshlarimizni ma'naviy, ruhiy tajovuzlardan himoya qilish hozirgi davrning dolzarb muammosidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 1 may kuni tasdiqlangan “Milliy mentalitetimizni yuksaltirish, xalqimiz turmush tarzi va mentalitetimizga yot bo'lgan holatlar oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi”da asosiy e'tibor yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etishga, yoshlarni ushbu illatlardan himoya qilishga qaratilgan.

“Ommaviy madaniyat” (“populyar” yoki qisqacha “popkultura” G'arbda o'tgan asr o'rtalarida vujudga keldi) kimlardir zo'r berib ta'rifiylayotgan, targ'ib qilayotgan umuminsoniy madaniyat emas, balki uning mutlaqo teskarisidir. Aslida bu hammani bir qolipga solish, o'ziga xoslikni yo'qotish harakatidir. YA'ni, o'zlikdan chekinish. Ming yillar davomida sayqal topgan milliy qadriyatlardan

<sup>17</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 28.

<sup>18</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 11

judo etayotgan, eng dahshatlisi, ayrim yoshlarni domiga tortib ketayotgan, ta'bir joiz bo'lsa, yo'ldan urayotgan mana shu "ommaviy madaniyat"dir.

"Erkin muhabbat", shahvatparastlik, sharmsizlik, zo'ravonlik va xudbinlikni targ'ib qilib, odamlar ongiga singdirishga qaratilgan bu hodisaga sog'lom fikrni G'arb olimlari o'z vaqtida "Madaniyat tanazzuliga qo'yilgan qadam" deb ta'rif bergan edi. Bu fikr haqligini bugun hatyoning o'zi ko'rsatib turibdi.

Insonga g'urur-iftixor bag'ishlaydigan millat, milliy qadriyat, Vatan degan oliy tushunchalar "ommaviy madaniyat" da'vosiga mutlaqo yot g'oyalar. U har bir millatning o'z qiyofasi bo'lishi zarurligi, uni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga etkazish lozimligini batamom rad etadi.

Biz ona Vatanni shu muqaddas zaminda tug'ilganimiz, qolaversa, shu millatga, madaniyatga mansubligimiz uchun sevamiz. Ular esa hammani bir xil o'ylashga, bir xil yashashga undaydi. Ota-onamiz qo'ygan ismda yurishimiz, momomiz eshitgan o'lanni tinglashimiz, bolamizga alla aytishimiz, qo'ni-qo'shni, qon-qarindosh, do'st-birodarga elka tutishimiz, yosh-yalang, etim-esirning boshini silab, to'g'ri yo'lga solishimiz, ko'chada tobut ko'targanlarni ko'rsak. Unga tobutkash bo'lishimiz ular uchun g'ayritabiiy tuyuladi.

SHu o'rinda aytib o'tish kerakki, "ommaviy madaniyat" va terrorizm bir ildizdan quvvat oluvchi ikki balo-qazoga o'xshaydi. Har ikkisi ham yovuzlikka yo'naltirilgan, ya'ni insonning jismi-joni va tafakkurini nishonga oladi. Ammo "ommaviy madaniyat" terrorizmdan-da xavflidir. CHunki terrorizm ma'lum bir qatlamni, ma'lum bir hudud aholisini, aksariyat hollarda jisman o'ldirsa, "ommaviy madaniyat" kurrai zaminning barcha xalq va millatlari qiyofasini, o'zligini, qadriyatlarini tag-tomiri bilan quritib, qo'porib tashlashday qabihlikni ko'zlaydi.

Inson hayotida muqaddas hisoblangan oila qadriyatlarining buzilishi, muhabbat atalmish oliy tushunchaning siyqallashuvi, nikohga asoslangan munosabatlar o'rnida g'ayriinsoniy "oila"larning paydo bo'lishi kishini dahshatga soladi.

Ma'lumki, kino san'ati inson his-tuyg'ulari tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng ommabop vosita hisoblanadi. Afsuski, "ommaviy madaniyat" tarafdorlari san'atning bu turidan ham o'zlarining qora maqsadlari yo'lida foydalanishga urinishmoqda.

Keyingi vaqtda turli xalqaro kinofestival va ko'riklarda axloqsizlik, giyohvandlik, zo'ravonlik, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tubanlik talqin etilgan filmlar ko'payib bormoqda. Hatto bu filmlarni katta mukofotlarga munosib ko'rayotgan kuchlar ham oz emas.

Musiqqa san'ati haqida ham shunday deyish mumkin. Jazavali ritm, zarb va shovqindan iborat musiqqa ma'naviy-ruhiy zavq olishga emas, balki jazavali raqsga xizmat qiladi. Ming afsuski, "ommaviy madaniyat"ning shu xildagi ayrim ko'rinishlari sharqqa, jumladan, O'rta Osiyoga ham ta'sir o'tkazmoqda. YOshlarimiz ularga taqlid qilayotganlari, milliy musiqamiz. Klassik qo'shiqlarimizdan ko'ra ba'zan bu shovqin-suronlarga ergashayotgani ham sir emas.

Ayrim siyosiy kuchlar "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida g'arazli niyatini amalga oshirishga urinmoqda.

Bunday vaziyatda milliy qadriyatlar, xalqona ta'lim-tarbiya va ichki madaniyat odamlarni har qanday balo-qazodan asraydi. Faqat shu yo'l bilangina uning oldini olish, yaqinlashib kelayotgan muqarar xafdan millatni omon saqlab qolish mumkin. "YUksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha-qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"<sup>19</sup>.

---

<sup>19</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 116

Globallashib borayotgan bugungi dunyoda teran nazar tashlasak, ayrim rivojlangan davlatlar axborot xuruji va mafkuraviy ta'siri orqali geosiyosat yuritishga urinayotgani ham ko'zga tashlanadi.

Prezidentimiz uqtirganidek, "Ba'zan beozor bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi".<sup>20</sup>

YOsh avlodni turli bizga yot bo'lgan xavfli ta'sirlardan asrashda ularda kuchli immunitet hosil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bolalarimizning hayotga bo'lgan sog'lom munosabati milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida shakllanishi, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyati, sabab va oqibatlari haqida mustaqil fikr-mulohazaga ega bo'lishi suv va havoday zarurdir.

Globallashuv bilan yonma-yon, paralel va bir vaqtning o'zida modernizatsiya jarayoni ham kelmoqda, unga ko'plab mamlakatlar va mintaqalar tortilgan bo'lib, ular shu yo'l orqali o'zlaridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va texnikaviy qoloqlikdan chiqishga urinmoqdalar. SHuning barobarida modernlashuv jarayonidagi ko'plab sub'ektlar «joriy» xarakterdagi masala va muammolar bilan shu qaror bandlarini, ularning globallashuv haqida o'ylashga vaqtlari ham topilmaydi. Ammo real holatda esa u yoki bu tomodan olib qaralganda ham bu ikki mega an'analar-globallashuv va modernlashuv shu qadar, o'sib ketishganki, ular umumiy jarayon sifatida xarakterlanishadi. Ularni yangi davr izlanishlari deb atash ham mumkin. O'sib borayotgan globallashuv modernlashuv jarayonining klassik modeliga shu qadar ko'p izohlar olib kirmoqdaki, ko'plab mutaxassislar buni transformatsiya yoki qurilma deb ham atamoqdalar. Xuddi shu ma'noda globallashuvni o'z-o'zini yangilashni, "zamonaviylashtirishni" muhim resursi deb qarashi mumkin va kerak. Bu ikki fenomen bir-biri bilan nafaqat kuchaytirilgan o'zaro bog'liklik bilan bog'langan, balki umumiy, ya'ni butun dunyo hamjamiyatini insoniyat yaratgan sivilizatsiyani saqlab qolish g'oyasi bilan birlashtiradi, ularning istiqbol rejalari kelgusida "birinchi rakamli" umuminsoniy,

<sup>20</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 126

umumsayyoraviy muammolarga aylanadi. Ijtimoiy-madaniy plan va kontekstda shuni ta’kidlab o’tish muximki, transformatsiya jarayonining tajribasi an’anaviy jamiyatdan yangi davrga ko’chishning bir o’lchovi va bir xil ma’nodagi sotsium taraqqiyotning bir tekis xarakterdagi klassik tasavvurlarini emirib bormokda. Ko’rinib turibdiki, modernlashuv “tayyor namunalar”ga taqlid bilan bog’lanibgina yashay olmaydi, balki ana’naviylik va zamonaviylik elementlarini sintezlash yo’llarini topish maqsadida harakat qilmoqda. Bu erda gap hammaning xulqida yoki hamma narsani o’ylashda qandaydir «alohida yo’l» topishga intilishida emas, balki avvalgi ijtimoiy taraqqiyot va tanazzul mezonlaridagi yuvilish, etishmovchiliklar bo’lib, ayni paytda ular ko’pchilik tomonidan qayta ishlab chiqarilmayapti va juda kamchilik qismigina qiziqtiradi.

Xuddi shu tamoillarga amal qilinsa, o’sha erda taraqqiyot yo’qotishlarsiz qo’lga kiritiladi va shunga bog’liq holda, yot narsaday emas, balki o’ziniki sifatida qabul qilinadi<sup>21</sup>. SHuning uchun ham bugungi kunda modernlashuv g’arbda vesterinlashuv sifatida emas, liberallashuv sifatida qaralmoqda, SHarqda esa liberal qadriyatlarga hurmat bilan qaragandek qabul qilinmoqda, ularga tanqidiy yondoshlsa-da, butkul rad etisha olmayapdi.

Bunday umid tug’diruvchi an’anani ko’rish va uni har tomonlama qo’llab-kuvatlash, shu yo’l orqali modernlashuvni “an’analar o’rtasidagi jarlik” deb tushunuvchi mavjud afsonalarga qarshi borish zarur. Antian’anaviylik ulkan foyda keltirishi mumkin, buning uchun an’anaviylik bosimi shaxsga pasayib borishi va jamiyat unga (shaxsga) yangi yaratuvchilik imkoniyatlari sifatida qarashi lozim bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, global ijtimoiy – madaniy almashuv bugungi kunda ziddiyatlarning o’ziga xos birligi sifatida talqin etiladi – insoniyat kadriyatlarining “yuqoriga ko’tarilish o’yinlari” va “pasayish o’yinlari”. Bu ikki an’ananing qay biri dunyoni egallab olishi globallashuvning o’ziga bog’lik, ya’ni u o’z taqdirini o’zi hal qiladi.

---

<sup>21</sup> Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy asoslari. –Toshkent: SHarq, 2001. –B. 78.

## **II - BOB. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasida yoshlar tarbiyasining amaliy asoslari**

### **2.1. YOshlar ruhiyatiga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlar tavsifi va tasnifi**

Jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, so‘nggi yillarda global miqyos kasb etib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga keldi, ularning oldini olishning samarali yo‘llarini aniqlash ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, ulkan tahdid – jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi haqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o‘ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta’siridan himoya qiladigan kuchli to‘siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi”<sup>22</sup>.

Inson ongi va qalbi uchun kurash tarixan turli shakllarda insoniyat hayotidan o‘rin egallab kelgan. Hozirgi davr mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotgani, turli oqimlar va kuchlar tomonidan g‘arazli maqsadlar yo‘lida amalga oshirilayotgan, jamiyat ma’naviy barqarorligiga salbiy ta’sir etadigan mafkuraviy xurujlarning yuzaga kelayotgani bilan xarakterlanadi. Bunday jarayonlar mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqqan yangi davlatlarning hayotida ham o‘ziga xos tarzda aks etmoqda. SHu bois “... hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib

---

<sup>22</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 31-32.

borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir"<sup>23</sup>.

Ayniqsa, shu yil 11-14 iyun kunlari Qirg'isitonda bo'lgan voqealar mafkuraviy tahdidlarda "uchinchi qo'lning" tashkilotchilik roli mavjudligini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan nutqida: "Uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan bu aksiyadan maqsad mamlakatda nafaqat tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish, balki O'zbekistonni ushbu vahshiyona xunrezlikka tortish, pirovard natijada, millatlararo qarama-qarshilikni ikki qo'shni mamlakat – Qirg'iziston hamda O'zbekiston o'rtasidagi davlatlararo qarama-qarshilikka aylantirishdan iborat edi"<sup>24</sup>-deb ta'kidlaydi.

Jamiyat ma'naviyatiga tahdid solayotgan mafkuraviy omillarning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari, g'oyaviy xavf-xatarlarning oldini olishning samarali usullari, vositalari va yo'llarini aniqlash zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan ifodalangan:

Birinchiidan, globallasuv sharoitida jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ta'sir kuchi ortib bormoqda. Xususan, turli yovuz va vayronkor g'oyalar, qarashlarning murakkab sintezi sifatida chiqayotgan mafkuraviy tahdidlar jamiyat umumiy xavfsizligiga jiddiy ta'sir etayotganini ta'kidlash zarur. Bu mafkuraviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy oqibatlariga yangicha nuqtai nazardan yondashuvni taqozo qiladi.

Ikkinchiidan, bugungi kunda ilg'or kommunikatsiya vositalari sharoitida mafkuraviy ta'sir ko'rsatish tezkor va shiddatli tus olib, turli soha va yo'nalishlar doirasida xilma-xil shakllarda namoyon bo'lmoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqichiga kirganini ko'rsatadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda,

<sup>23</sup> Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.– Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 29.

<sup>24</sup> Karimov I.A. Xamkorlik, taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlash yo'lidan. BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. Toshkent: /Xalq so'zi. 2010 yil 22 sentyabr.

buzg'unchi va vayronkor g'oyalarning hozirgi davrda namoyon bo'lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, milliy g'oya konsepsiyasini samarali amalga oshirish g'oyaviy xurujlarning oldini olishning muhim shartidir. Zero, milliy mafkura tizimidagi g'oyalar jaholatga qarshi kurashda ilmiy yondashuv asosida belgilab olingan asosiy ma'rifiy vosita hisoblanadi. Bu borada, yurt tinchligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi g'oyalariidan mafkuraviy kurashda foydalanishning oqilona yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, yoshlar turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida mafkuraviy tahdidlarning asosiy ob'ektiga aylanmoqda. Natijada, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida jamiyatimiz yoshlarining hayotiy mo'ljal va maqsadlarini, orzu-ideallarini bilish, ma'naviy-axloqiy hayotidagi ustuvor tendensiyalarni aniqlashni talab etadi.

Beshinchidan, o'zining mafkuraviy ta'sir kuchiga ko'ra oila, mahalla va ta'lim-tarbiya tizimi g'oyaviy tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Ayni paytda, mazkur institutlar mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, ularning faoliyatida tarbiya va mafkuraviy muhofaza uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish mavjud muammolarning oqilona echimlarini topishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, kunda OAVning aholi, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri oshib bormoqda. Bu OAV orqali amalga oshiriladigan mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini aniqlash, ularning oldini olish bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, "to'rtinchi hokimiyat"ning turli tarmoqlarida olib boriladigan g'oyaviy targ'ibot mazmunini kuchaytirish imkoniyatlari va yo'llarini tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “YOshlarimizda ishonchni, mustaqil, ijodiy fikrlashni shakllantirish, Vatanning taqdiriga mas’ullik hissini rivojlantirishdir. Va, albatta, bizga yot bo‘lgan odatlar va qarashlarga nisbatan sobit e’tiqodni yaratishdir”<sup>25</sup>, degan fikrlarida o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh masalasidir. SHuning uchun ham er yuzini turli mintaqa xalqlarining ongi va qalbi turli g‘oyalarni singish maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda.

Ana shunday sharoitda xalqning barcha qatlamlariga berilayotgan bilimlar ob’ektiv voqelikni to‘liq va to‘g‘ri aks ettirishi, jamiyat taraqqiyotiga "Vatan va xalq manfaatlariga, qadriyatlarni saqlashga xizmat qilishi lozim"

Bilimlar qanchalik ob’ektiv va chuqur bo‘lsa, uning zamirida vujudga kelgan qadriyatlar ham shunchalik ustivor bo‘ladi. Ularni egallagan odamlar mafkuraviy tajovuzlarga zarba bera oladilar.

**G‘oyaviy mafkuraviy bo‘shliq** eski tuzumdan yangi tuzumga o‘tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o‘tmishiga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o‘rnini bosadigan ilg‘or g‘oyaviy tizimning hali shakllanmagan holatidir. Bunday sharoitda turli mafkuralar o‘z ta’sirini o‘tkazishga urinadi.

1990 yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo‘shliq O‘zbekiston hududida ham namoyon bo‘ldi.

Uning xususiyatlari quyidagicha:

**Birinchi dan hukmron**, yakkahokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom tanazzulga qo‘l tutdi va uning o‘rni bo‘shab qoldi.

**Ikkinchi dan**, O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topgan bo‘lsa-da, uning mafkurasi hali to‘la-to‘kis shakllanmagan va barcha fuqarolar ongiga singib ulgurmagan, barchaning e’tiqodiga, mustaqil dunyoqarashiga aylanmagan edi.

---

<sup>25</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 14.

**Uchinchidan**, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lgan joyda muqarrar tarzda boshqa yot va begona mafkuralar huruji boshlanadi. O‘tish davrida yangicha qarashlar mustahkam e‘tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta’sirlarning yaxshi yoki yomon, foydali yoki zararli ekanini hamma ham farqlay olmaydi.

O‘zbekistondagi mafkura maydoniga begona, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo yot g‘oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohlanadi.

**To‘rtinchidan**, mustaqil mamlakatimiz tinch-osoyishta yashayotgan bir paytda Afg‘oniston va boshqa yaqin hududlardagi beqaror vaziyatdan foydalanib, ularning hududiga in qurib olgan ba’zi bir ekstremistik kuchlar, terrorchi to‘dalar o‘z jinoyatkorona maqsadlarini amalga oshirishga, Markaziy Osiyo mintaqisini mafkuraviy kurashlar maydoniga aylantirishga urina boshlagan edi.

Bu jinoiy guruhlar o‘zlarining yovuz maqsadlarini turli islomiy mafkuraviy g‘oyalar bilan niqoblashga harakat qildilar. Ayniqsa, 80-yillarning ikkinchi yarmi, 90-yillarning boshlariga kelib din niqobidagi zararli, xalqimizning iymon-e‘tiqodiga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlarni "vahhobiylik", "hizbut tahrir", "akromiylik", "adolat uyushmasi", "islom lashkarlari", "tavba" kabi harakatlarning ta’sirini yoyishga, yoshlarni yo‘ldan ozdirishga intildilar.

Vahhobiylik islom g‘oyalari siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go‘yoki islomni payg‘ambar davridagi "asl holatiga qaytarish", ya’ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog‘i ostida birlashtirish kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

Vahhobiylik mustaqillikning ilk yillaridagi g‘oyaviy bo‘shliqdan ustalik bilan foydalanishiga intildi. SHuning uchun ba’zi kishilarni arab mamlakatlarida sayohatda, xizmat safarida, o‘qishda bo‘lgan vaqtlarida o‘z ta’siriga tushirishga harakat qildi.

SHundan so‘ng, dastlab joylardagi masjidlar imom-xatibligi uchun, keyinroq esa mamlakat diniy idorasining nufuzli lavozimlari uchun kurashdi, islom siyosiy partiyasini tuzishga harakat qildi. Asta-sekin O‘zbekistonni islom respublikasi deb

e'lon qilish, mintaqamizda xalifalikni tiklash rejasini amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Ular o'tgan yillarda qonli jinoyatlar, tartibsizliklar sodir etdilar.

Ular o'z niyatlarini amalga oshirishda "do'stlik", "dindoshlik", "millatdoshlik" tushunchalarini ham ishga soladilar. Kerak bo'lganda moddiy yordam ham ko'rsatadilar. Masjidlar qurib berib, islomiy adabiyotlar bilan ta'minlab, o'zlarini haqiqiy dindor, haqiqiy musulmon qilib ko'rsatishga intiladilar. Ammo razil niyatlarini baribir oshkor etadilar, turli qo'poruvchilik, tezkor ishlariga sabab bo'ladilar. Vahhobiylik, xizbut tahrir kabi zararli oqimlar mustaqillikning dastlabki yillarida sodir bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan ustalik bilan foydalanishga intilgan bo'lsa-da, lekin maqsadlariga baribir erisha olmadilar<sup>26</sup>.

Ammo o'sha dastlabki paytlarda e'tiqodi bo'sh, sodda va ishonuvchan, dunyoqarashi shakllanmagan, etarli bilimga ega bo'lmagan odamlarni, ayniqsa bilib-bilmay noto'g'ri yo'llarga kirib qolganligi ham faktdir. YOshlarning "Kamolot" jamg'armasi faoliyati istiqlol talablariga javob bera olmaganligi oqibatida ham ko'plab yoshlar istiqlol g'oyalariga asoslangan tarbiyaviy jarayonlardan chetda qolib ketishga sabab bo'ldi.

Davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalarning mafkuraviy sohada etarli tajribasi yo'qligi, ijtimoiy fanlarning hayot talablaridan orqada qolganligi, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro'y berayotgan murakkab jarayonlar o'z vaqtida ilmiy echimini topmagani, odamlarga mafkuraviy jihatidan to'g'ri yo'l ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslar, diniy ulamolarning etarli emasligi ham bunga sabab bo'ldi.

Xullas, g'oyaviy bo'shliq umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilish natijasida vujudga keladi.

---

<sup>26</sup> Karimov I.A. Xushyorlikka davat. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B. 24.

## **2.2. Ma'naviy tahdidlarga qarshi tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlari**

Xalqimizning o'ziga xos milliy urf-odat, an'ana va turmush tarzi bor. Bular bebaho milliy qadriyat, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy merosdir. Ularni asrash va kelajak avlodlarga etkazish alohida mas'uliyat talab etadi. Zero, farzandlarimizning o'zligini tanishida milliy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir.

CHunki bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga mutlaqo zid g'oyalar bilan yo'g'rilgan, inson ongini zaharlaydigan vositalarni tarqatishga zo'r berib urinayotgan kimsalar, afsuski, yo'q emas. Ayniqsa, yovuzlikni targ'ib qiluvchi kino va videofilmlar, teleradio dasturlar, bosma nashrlar, pornografik mazmundagi asarlar va boshqa mahsulotlar, reklamalarni yoshlar orasiga bilinar-bilinmas holda majburan kiritish yo'liga o'tilgani kuzatilmoqda<sup>27</sup>.

Bu kabi noqonuniy xatti-harakatlar asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni yo'qotishga, yosh avlod qalbiga xudbinlik, hayosizlik kabi salbiy hissiyotlarni singdirishga qaratilgani bilan ham ijtimoiy xavflidir.

Binobarin, bunday xatarli taxdidlar, ayniqsa, kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir qilmay qolmaydi. Bu o'z navbatida farzandlarimizni ana shunday illatlardan saqlashimizni, himoya qilishimizni taqozo etadi. Ana shu nuqtai nazardan qonunchilik tashabbusi bilan respublika Bosh prokurori tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan «Voyaga etmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yalpi yig'ilishida birinchi o'qishda muhokama qilindi. «Voyaga etmaganlarning nazoratsizligi va huquq-buzarliklarning oldini olish to'g'risida»gi qonun loyihasi bolalarning nazoratsizligi va huquqbuzarligining oldini olishga qaratilgan bo'lib, bu borada voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha

---

<sup>27</sup> Boboev F. Milliy istiqlool mafkurasi va taraqqiyot. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2001. –B. 88.

komissiyalar, ichki ishlar, ta'lim, vasiylik va homiylik, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish idoralarining, shu jumladan, voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarining, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining vazifalari aniq belgilab berilgan.

SHuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarning voyaga etmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish tadbirlaridagi ishtiroki alohida moddada bayon etilgan. «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ko'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 188<sup>2</sup>-modda kiritish ko'zda tutilmoqda. Ushbu moddada tungi vaqtda bolaning ota-onasidan biri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvsiz restoranlar, qahvaxonalar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar joylarda hozir bo'lishiga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. YAAlpi majlisida birinchi o'qishda muhokama qilinib, konseptual jihatdan ma'qullangan har ikkala qonun loyihasida, ko'zlangan asosiy maqsad — bolalarni nazoratsiz qolishdan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga, odob-axloqimizga zid bo'lgan tungi namoyish va tahdidlardan asrashdan, restoranlar, qahvaxonalar, klublar, Internet xonalari va boshqa shunga o'xshash ko'ngilochar joylardan tiyishdan, bolalarni ham ruhan, ham ma'nau, ham jismonan barkamol etib voyaga etkazishdan iborat.

Zero, davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab etishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun etarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabiatga, mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat

tuyg‘usi haqida kitoblarda yozilganlarni o‘qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga etadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo‘lib qoladi, deb tasavvur qilish o‘ta soddalik bo‘lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsoltushunchalarining o‘z ruhidagi poydor ma‘naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o‘zgalar ibratida sinashi, bu yo‘lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko‘nglida mehr uyg‘onishi zarur. Bunga turli yo‘llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko‘ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi<sup>28</sup>.

“Bizning ulug‘ ajdodlarimiz, - deb yozadi Prezident, - o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli deb bilaman.”

SHu gapga kichik bir misol:

Ma‘lumki, imon-e‘tiqod ma‘naviyatning umurtqa pog‘onasi hisoblanadi. Xalqimizda birovni “imonsiz” deb atash eng og‘ir haqoratdir. Biz dinimiz islom deymiz, Qur‘oni Karimda yozilishicha, Alloh bani basharni o‘ziga ibodat qilish uchun yaratgan. Lekin ko‘pchilik islomiy ibodatlar deganda, namoz, ro‘za, zakot, haj amallarini ko‘z oldiga keltiradi. Buyuk tasavvuf piri Bahouddin Naqshband esa Rasululloh (sav)ning quyidagi hadisini keltiradi: “Ibodot o‘n qismdir, uning o‘ndan to‘qqizi halol rizq topish harakati, qolgan barcha ibodatlar o‘ndan birini tashkil etadi.” Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G‘ijduvoniylarning piri murshidi hisoblangan shayx Yusuf Hamadoniyning “Hayot mezoni” asarida Payg‘ambarimizning yana bir hadislari keltiriladi: “Musulmon bo‘lmaganlaringizcha jannatga kirmaysizlar, bir-birlaringizga samimiy mehr qo‘ymaganlaringizcha musulmon bo‘lmaysizlar.” SHu sababli biz farzandlarimizga imonning asosiy sharti halollik, adolat va insonga, tabiatga mehr debuqdirishimiz, nafaqat uqdirishimiz, balki shu yo‘lda o‘zimiz ibrat bo‘lishimiz shart.

---

<sup>28</sup> Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. –Toshkent: O‘zbekiston, 2001. –B. 96.

Prezident kitobida “inson ma’naviy olamining yuksalishi” deganda nimani tushunish kerak, degan savolga aniq va lo‘nda javob berilgan: “O‘llohning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish”. Ammo muallif yana ta’kidlaydiki, ushbu qoidani tushunish va e’tirof etishning o‘zi kifoya emas, balki ayni shu e’tiqodga amal qilib yashash – “odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon”dir<sup>29</sup>.

“Takror aytishga to‘g‘ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur”. Prezidentning hushyorlikni yo‘qotmaslik, beparvo bo‘lmaslik xususidagi uqdirishlarini to‘g‘ri tushunadigan bo‘lsak, bu degani yosh avlodga to‘g‘ri ta’lim berish bilan birga, har bir aytgan so‘zimizga avvalo o‘zimiz rioya qilishimiz kerak bo‘ladi. Masalan, “ilm ol” dedikmi, o‘zimiz umr bo‘yi ilmimizni oshirib, puxtalab borishdan to‘xtamasligimiz kerak; “halol va adolatli bo‘l” dedikmi, o‘zimiz farzandlarimizni halol luqma bilan boqayotganimizga, o‘z foydamizni ko‘zlab birovga zulm bo‘ladigan xatti-harakatdan saqlanishga qat’iy urinmog‘imiz lozim bo‘ladi. Ana shundagina bolalarimiz kelajagidan xotirjam bo‘lishimiz mumkin.

“O‘z-o‘zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma’naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda”<sup>30</sup>

Albatta, barcha muammolarni bir kunda, bir hamla bilan echib bo‘lmaydi. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash bir umrlik ish. Mustaqilligimiz bu sa’y-harakatlarimiz samarali bo‘lishining ishonchli kafolatidir. Ammo har bir ishda yolg‘on qadamlardan, oson echimlar qidirishdan ehtiyot bo‘lmog‘imiz juda muhim. Har bir ishda qiyinchilikni bo‘yniga olgan odam haqiqiy yutuqqa erishadi. Ayniqsa, biz ziyolilar, yosh avlod tarbiyachilari o‘z vazifamizga mas’uliyat bilan yondoshsak, “farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-

<sup>29</sup> Karimov I.A. Allox qalbimizda, yuragimizda. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999. –B. 46.

<sup>30</sup> Jo‘raev N. Mafkuraviy immunitet. –Toshkent: Ma’naviyat, 2001. –B. 46.

bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash”dan, shu yo‘l bilan ular ongida “mafkuraviy immunitet” hosil qilishga urinishdan charchamasak, millatimiz yana buyuk millat bo‘ladi, avlodlarimiz ajdodlarimizga munosib qudrat kasb etadi. Muallimning mehnati samarasi uzoq kelajakka ulanib ketadigan ezgu mehnat. Keling, avlodni boqiylikka eltuvchi mehnatdan erinmaylik, toki Prezidentimizning, xalqimizning yorug‘ orzulari ushalsin, “yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin”.

Jamiyat barqarorligini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar va ularning oldini olish muammolarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, so‘nggi yillarda global miqyos kasb etib, jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan turli xavf-xatarlar vujudga keldi, ularning oldini olishning samarali yo‘llarini aniqlash ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, ulkan tahdid – jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi haqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadi: “Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o‘ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta‘siridan himoya qiladigan kuchli to‘siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi”<sup>31</sup>.

Inson ongi va qalbi uchun kurash tarixan turli shakllarda insoniyat hayotidan o‘rin egallab kelgan. Hozirgi davr mafkuraviy tahdidlarning kuchayib borayotgani, turli oqimlar va kuchlar tomonidan g‘arazli maqsadlar yo‘lida amalga oshirilayotgan, jamiyat ma‘naviy barqarorligiga salbiy ta‘sir etadigan mafkuraviy xurujlarning yuzaga kelayotgani bilan xarakterlanadi. Bunday jarayonlar mustaqil taraqqiyot yo‘liga chiqqan yangi davlatlarning hayotida ham o‘ziga xos tarzda aks etmoqda. SHu bois “... hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz,

---

<sup>31</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 31-32.

azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo‘lishga da’vat etishi tabiiydir”<sup>32</sup>.

Ayniqsa, shu yil 11-14 iyun kunlari Qirg‘izistonda bo‘lgan voqealar mafkuraviy tahdidlarda “uchinchi qo‘lning” tashkilotchilik roli mavjudligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan nutqida: “Uzoqni ko‘zlab amalga oshirilgan bu aksiyadan maqsad mamlakatda nafaqat tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish, balki O‘zbekistonni ushbu vahshiyona xunrezlikka tortish, pirovard natijada, millatlararo qarama-qarshilikni ikki qo‘shni mamlakat – Qirg‘iziston hamda O‘zbekiston o‘rtasidagi davlatlararo qarama-qarshilikka aylantirishdan iborat edi”<sup>33</sup>-deb ta’kidlaydi.

Jamiyat ma’naviyatiga tahdid solayotgan mafkuraviy omillarning ob’ektiv va sub’ektiv jihatlari, g‘oyaviy xavf-xatarlarning oldini olishning samarali usullari, vositalari va yo‘llarini aniqlash zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan ifodalangan:

Birinchiidan, globallashuv sharoitida jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lib, ta’sir kuchi ortib bormoqda. Xususan, turli yovuz va vayronkor g‘oyalar, qarashlarning murakkab sintezi sifatida chiqayotgan mafkuraviy tahdidlar jamiyat umumiy xavfsizligiga jiddiy ta’sir etayotganini ta’kidlash zarur. Bu mafkuraviy tahdidlarning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va ijtimoiy oqibatlariga yangicha nuqtai nazardan yondashuvni taqozo qiladi.

Ikkinchiidan, bugungi kunda ilg‘or kommunikatsiya vositalari sharoitida mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish tezkor va shiddatli tus olib, turli soha va yo‘nalishlar

<sup>32</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.– Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 29.

<sup>33</sup> Karimov I.A. Xamkorlik, taraqqiyot va xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidan. BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo‘yicha oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. Toshkent: /Xalq so‘zi. 2010 yil 22 sentyabr.

doirasida xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning tarixan yangi sifat bosqichiga kirganini ko‘rsatadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, buzg‘unchi va vayronkor g‘oyalarning hozirgi davrda namoyon bo‘lish xususiyatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, milliy g‘oya konsepsiyasini samarali amalga oshirish g‘oyaviy xurujlarning oldini olishning muhim shartidir. Zero, milliy mafkura tizimidagi g‘oyalar jaholatga qarshi kurashda ilmiy yondashuv asosida belgilab olingan asosiy ma’rifiy vosita hisoblanadi. Bu borada, yurt tinchligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi g‘oyalariidan mafkuraviy kurashda foydalanishning oqilona yo‘llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, yoshlar turli ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar ta’sirida mafkuraviy tahdidlarning asosiy ob‘ektiga aylanmoqda. Natijada, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalasi har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu mafkuraviy tahdidlarning oldini olishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida jamiyatimiz yoshlarining hayotiy mo‘ljali va maqsadlarini, orzu-ideallarini bilish, ma’naviy-axloqiy hayotidagi ustuvor tendensiyalarni aniqlashni talab etadi.

Beshinchidan, o‘zining mafkuraviy ta’sir kuchiga ko‘ra oila, mahalla va ta’lim-tarbiya tizimi g‘oyaviy tarbiya jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda, mazkur institutlar mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. SHunday ekan, ularning faoliyatida tarbiya va mafkuraviy muhofaza uyg‘unligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni tizimli tahlil qilish mavjud muammolarning oqilona echimlarini topishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, kunda OAVning aholi, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashi va tafakkuriga ta’siri oshib bormoqda. Bu OAV orqali amalga oshiriladigan mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini aniqlash, ularning oldini olish bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, “to‘rtinchi hokimiyat”ning turli tarmoqlarida olib

boriladigan g'oyaviy targ'ibot mazmunini kuchaytirish imkoniyatlari va yo'llarini tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

SHuningdek, tadqiqotning dolzarbligi mafkuraviy tahdidlarning oldini olish jamiyat barqarorligini ta'minlashning muhim omili ekanini ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish zaruriyati bilan ham belgilanadi.

## Xulosa

Hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlar namoyon bo'lishining xususiyatlari tahlili qo'yidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchi, mafkuraviy tahdidlar mohiyat e'tibori bilan shaxs, ijtimoiy guruh, millat va jamiyatning erkinligi, barqaror taraqqiyotiga qarshi qaratilgan bo'lib, g'arazli siyosiy va geosiyosiy manfaatlarning in'ikosi hisoblanadi. Vayronkor xarakterga ega bo'lgan bunday tahdidlar sub'ekt ongi va qalbiga yo'naltirilgani, mazmun va shakl jihatidan xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi, mafkuraviy tahdidlar global xarakter kasb etmoqda. Bu, bir tomondan, ijtimoiy hayotning barcha sohalari ana shunday tahdidlar ostida qolayotgani, ikkinchi tomondan, strategik maqsadlarni, taktik vazifalarni amalga oshiradigan va puxta ishlab chiqilgan xalqaro institutsional tizim shakllanayotganida ham yaqqol ko'rinadi.

Uchinchi, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash, ularning oldini olish yuksak ma'naviyatni shakllantirish, g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar mohiyatiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish zarurligini ko'rsatadi. Bu ob'ektiv voqelikka aylangan global mafkuraviy tahdidlarning ijtimoiy jarayonlar sub'ektiga qarshi qaratilgani va ularning oldini olish shu sub'ektlarning faolligini oshirishning, sodir bo'layotgan jarayonlarga daxldorlik va aktiv aks munosabatini shakllantirishning hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi.

To'rtinchi, milliy mafkuraning mohiyatini ifodalovchi g'oyalar jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar, demografik guruhlar manfaatini aks ettiradi. SHundan kelib chiqqan holda, ularning to'g'ri anglanishi, chuqur o'zlashtirilishi va faoliyat motiviga aylanishi differensial yondashuvni taqozo qiladi va g'oyaviy targ'ibot-tashviqotning samaradorligini belgilaydi.

Beshinchi, yoshlarning mustaqil dunyoqarashini, yuksak ma'naviyatini shakllantirish ularda vayronkor g'oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning muhim sharti, sog'lom oilaviy muhit esa, kamol topayotgan

yosh avlod ongi va qalbiga ezgu g‘oyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning muhim institutsional asosidir.

Oltinchidan, mafkuraviy tahdidlar aniq makon va zamon xarakteristikasiga ega. Bu g‘oyaviy kurashda mahalla va ta’lim-tarbiya tizimining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Mahalla g‘oyaviy targ‘ibot-tashviqotni konkret sharoit va vaziyatdan, aholining ijtimoiy ahvolidan, ta’lim tizimi yoshlarning bilim, ko‘nikma va malakasiga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda tashkil etish, xalqimizga xos jamoaviylik va jamoaviy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlaridan foydalanish uchun zamin yaratadi.

Ushbu xulosalar asosida malakaviy bitiruv ishining natijalaridan foydalanish bo‘yicha quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqilgan:

1. Mafkuraviy tahdidlarning mohiyatini teran anglash, ularga qarshi kurashda tarbiyaviy jarayonlar uzviyligini ta’minlash uchun joylarda Ma’naviyat targ‘ibot markazlari qoshida g‘oyaviy tarbiya monitoringini olib borish bo‘limlarini tashkil etish maqsadga muvofiq;

2. Jamoatchilik asosida olim, mutaxassislarni jalb etish yo‘li bilan mahallalarda doimiy faoliyat yuritadigan va g‘oyaviy tarbiyaga yo‘naltirilgan “Munozara” klublarini tashkil etish zarur;

3. G‘oyaviy targ‘ibotni amalga oshirishda televidenie katta imkoniyatlarga egaligini inobatga olib, badiiy filmlar namoyishi vaqtida mafkuraviy tahdidlarning oldini olish va kishilarimizda g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy roliklarning tizimli berib borilishini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega;

4. Ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning Internetdagi saytlarida maxsus “YOshlar va g‘oyaviy kurash” veb sahifasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu, birinchidan, yoshlar orasida olib boriladigan g‘oyaviy tarbiyani internet imkoniyatlaridan foydalangan hamda konkret sharoit, mintaqaga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda tashkil etish imkonini beradi. Ikkinchidan, mazkur sohada yoshlarni

qiziqtirayotgan muammolarni tezkor o'rganish va hozirjavoblik uchun zamin yaratadi. Uchinchidan, mavjud muammolar yuzasidan yoshlarning erkin fikr almashishi uchun o'ziga xos axborot maydoni yuzaga keladi;

5. YOshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, g'oyaviy-siyosiy pozitsiyasini aniqlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar olib borilishini tizimli yo'lga qo'yish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunda olib boriladigan ishlarni "YOshlar dunyoqarashiga xos xususiyatlarni sotsiologik o'rganish - tadqiqot xulosalariga tayanib mafkuraviy tarbiyaning ustuvor yo'nalishlari rejasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish – amalga oshirilgan ishlar natijasini yangi sotsiologik so'rovlar yordamida o'rganish" siklida tashkil etish ko'zlangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, zamonaviy voqelik mafkuraviy tahdidlar bilan bog'liq masalalarni nazariy-metodologik jihatdan tahlil etishni chuqurlashtirish va olinayotgan ilmiy natijalarning amaliy tatbiqini to'g'ri yo'lga qo'yish ma'naviy yuksalish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning zaruriy sharti ekanini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 148 b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 116.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 178 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: SHarq, 1997. – 278 b.
5. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 78 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin". –Toshkent: O'zbekiston, 1994. – 198 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari. –Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 156 b.
8. Karimov I.A. Iroda va iymon e'tiqodimiz sinovi. –Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 148 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 358 b.
10. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 78 b.
11. Karimov I.A. Hushyorlikka da'vat. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 89 b.
12. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti". O'quv qo'llanma. Toshket Moliya Instituti. –Toshkent. 2004. – 198 b.
13. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asarini o'rganish bo'yicha Metodik Qo'llanma. –Toshkent: Universitet. 1997. – 156 b.
14. Xudoyberdiev E. Islom Karimov asarlarida madaniyat tushunchasining mohiyati (o'quv qo'llanma). Toshkent 2010 yil. – 118 b.

15. Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 yil. – 256 b.
16. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –Toshkent: 2007. –B. 218. – 156 b.
17. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari (ilmiy-uslubiy tavsiyalar). –Toshkent: Universitet. 1996. – 56 b.
18. Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 165 b.
19. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining g'oyaviy asoslari. –Toshkent: SHarq, 2001 yil. – 178 b.
20. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (izohli ko'rgazmali vositalar to'plami). –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001 yil. – 358 b.
21. Sobirov M. Milliy istiqlol mafkurasi: mohiyat manbalari va ijtimoiy vazifalar. –Toshkent: O'zbekiston, 2001 yil. – 248 b.
22. Xudoyberdiev E. Ma'naviyatning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro munosabatlari va rivojlanish xususiyatlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010 yil. – 89 b.
23. Xudoyberdiev E. Milliy g'oya va ma'naviyatni shakllantirishning ijtimoiy asoslari. (O'quv qo'llanma). Toshkent. 2010 yil. – 248 b.
24. Xudoyberdiev E. Ma'naviyat asoslari fanidan o'quv qo'llanma, Toshkent. 2010 yil. – 78 b.
25. Xudoyberdiev E. Ma'naviyat, iqtisod va ularning o'zaro bog'liqligi (o'quv uslubiy qo'llanma). Toshkent. 2007 yil. – 136 b.
26. Nishonboev Q., Ergasheva I., Munavvarova M., Ajdodlardan meros – engilmas kuch (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” kitobini o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha metodik qo'llanma). Toshkent. 2008 yil. – 147 b.
27. SHodiev G'. Ma'naviyat va yoshlar. –Toshkent: Abu matbuot konsalt. 2008 yil. – 126 b.

28. Boboev F., G'ofurov Z. Milliy istiqloq mafkurasi va taraqqiyot. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001 yil. – 124 b.
29. Buyuk siymolar, allomalar. –Toshkent: Ma'naviyat, 1995 yil. – 56 b.
30. Milliy istiqloq g'oyasi asosiy hususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 yil. – 289 b.
31. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. –Toshkent: Ma'naviyat, 2001 yil. – 48 b.
32. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2001 yil. – 165 b.
33. Paxrutdinov SH. Taxdid – halokatli kuch. – Toshkent: Akademiya, 2001 yil. – 89 b.
34. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001 yil. – 147 b.
35. Otamurodov S. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2003 yil. – 126 b.

#### Internet saytlari.

1. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)
2. [www.go.uz](http://www.go.uz) –Xukumat sayti
3. [www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz) – Prezident sayti
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) – Vazirlik sayti
5. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz) – Vazirli sayti
6. [www.performance.edu.uz](http://www.performance.edu.uz)– Vazirli sayti
7. [www.tseu.fan.uz](http://www.tseu.fan.uz) – TDIU sayti
8. [www.tseu.uz](http://www.tseu.uz)– TDIU sayti
9. [www.teuphil.narod.ru](http://www.teuphil.narod.ru) – Falsafa sayti.